

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR MUAMMOLARI VA ULARNI HAL QILISHNING SOTSIAL AHAMIYATI

G'ulomova Moxinur Zoxidjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17949531>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy hayotda duch kelayotgan asosiy muammolari, ularni bartaraf etishning zamonaviy yondashuvlari hamda mazkur jarayonning jamiyat taraqqiyoti uchun sotsial ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolani yoritish davomida nogironlikning tibbiy va sotsial modellari solishtirilib, inklyuziv jamiyat tamoyillarining amaliy ahamiyati yoritiladi. Nogironlar uchun yaratilgan infratuzilma, ta'lim va bandlik imkoniyatlari, reabilitatsiya xizmatlari, psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining dolzarbligi ilmiy manbalar asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada nogironlikni jamiyat tomonidan yaratilmagan sharoitlar bilan bog'liq ijtimoiy hodisa sifatida talqin qiluvchi zamonaviy nazariyalar asosida kompleks tahlil amalga oshirilgan. Zero, inklyuziv muhitni shakllantirish, davlat siyosatini takomillashtirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: nogironlik, nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy himoya, inklyuziya, inkluziv ta'lim, ijtimoiy integratsiya, ijtimoiy adolat, reabilitatsiya, adaptatsiya diskriminatsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mehnat bozorida ishtirok, maxsus ehtiyojlar, ijtimoiy siyosat, inson huquqlari, ijtimoiy to'siqlar.

Annotation.

This article analyzes the main problems faced by persons with disabilities in social life, modern approaches to addressing these challenges, and the social significance of these processes for societal development. The study compares the medical and social models of disability and highlights the practical importance of inclusive society principles. The relevance of infrastructure designed for persons with disabilities, educational and employment opportunities, rehabilitation services, and psychological support mechanisms is examined based on scientific sources. The article provides a comprehensive analysis of disability as a social phenomenon arising from environmental and societal barriers, drawing on modern theoretical approaches. Consequently, proposals and recommendations aimed at fostering an inclusive environment, improving state policy, and ensuring social equality hold important scientific and practical value.

Keywords: disability, persons with disabilities, social protection, inclusion, inclusive education, social integration, social justice, rehabilitation, adaptation, discrimination, social support, participation in the labor market, special needs, social policy, human rights, social barriers.

Аннотация.

В данной статье анализируются основные проблемы, с которыми сталкиваются люди с инвалидностью в социальной жизни, современные подходы к их решению, а также социальная значимость данных процессов для развития общества. В ходе раскрытия темы сравниваются медицинская и социальная модели инвалидности, подчёркивается практическая значимость принципов инклюзивного общества. На

основе научных источников рассматриваются актуальность специальной инфраструктуры для людей с инвалидностью, возможности образования и занятости, услуги реабилитации и механизмы психологической поддержки. В статье проводится комплексный анализ инвалидности как социального явления, обусловленного созданными обществом барьерами, с опорой на современные теоретические подходы. В итоге предлагаются рекомендации и практические предложения, направленные на формирование инклюзивной среды, совершенствование государственной политики и обеспечение социальной справедливости.

Ключевые слова: инвалидность, люди с инвалидностью, социальная защита, инклюзия, инклюзивное образование, социальная интеграция, социальная справедливость, реабилитация, адаптация, дискриминация, социальная поддержка, участие в рынке труда, особые потребности, социальная политика, права человека, социальные барьеры.

Kirish.

Jamiyat taraqqiyoti darajasi, avvalo, undagi har bir insonning huquq va imkoniyatlari qay darajada ta'minlanganligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot sifati, ijtimoiy himoyasi, ta'lim va mehnat jarayonlarida ishtirok etish darajasi har qanday davlatning sotsial siyosati va insonparvarlik tamoyillarining muhim mezonidir. So'nggi yillarda inson huquqlarini teng asosda ta'minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, aholining eng zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlash masalalari global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Nogironligi bo'lgan shaxslar esa nafaqat jismoniy cheklovlarga, balki atrof-muhit, infratuzilma hamda ijtimoiy stereotiplar tufayli yuzaga keluvchi ko'plab to'siqlarga duch kelishmoqda.

Dunyo bo'yicha aholining sezilarli qismini tashkil etuvchi ushbu toifa vakillarining ehtiyojlarini o'rganish, ularning huquqiy, psixologik, tibbiy va sotsial qo'llab-quvvatlanish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biridir. Zero, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotiga faol integratsiyasi nafaqat insonparvarlik nuqtayi nazaridan, balki mamlakatning iqtisodiy salohiyati, demografik barqarorligi va ijtimoiy birlikni mustahkamlashda ham beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu mavzuning dolzarbligini yana shundan iboratki, zamonaviy yondashuvlar nogironlikni shaxsning o'ziga xos jihati sifatida emas, balki atrof-muhitda mavjud bo'lgan to'siqlar va yetarli imkoniyatlar yaratib berilmagani oqibati sifatida talqin etadi. Demak, muammoning asosiy yechimi ham jamiyat tomonidan qulay sharoitlarni shakllantirish, to'liq inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlashga bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili

Nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy muammolari va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu soha keng ko'lamli, turli yo'nalishlarni o'z ichiga olgan kompleks tadqiqot maydoni ekanini ko'rsatadi. Jahon miqyosida nogironlik masalasi bo'yicha tadqiqotlar asosan sotsial model, tibbiy model hamda aralash yondashuvlar doirasida olib boriladi. Tibbiy model nogironlikni shaxsning jismoniy yoki ruhiy nuqsoni bilan izohlasa, sotsial model uni jamiyatda mavjud to'siqlar, stereotiplar va imkoniyatlar yetishmovchiligi bilan bog'laydi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar esa mazkur ikki modelning o'zaro uyg'unligi asosida masalaga kompleks qarashni taklif etadi.

XXI asrda BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"si (2006) ushbu sohada ilmiy va amaliy izlanishlarning yo'nalishini keskin o'zgartirdi. Konvensiya nogironlikni shaxsning cheklovli holati emas, balki jamiyatning unga yarata olmagan imkoniyati sifatida

talqin etishni taqozo etadi. Shu sababli ko'pgina tadqiqotchilar (M. Oliver, T. Shakespeare, R. Linton va boshqalar) nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy, iqtisodiy, sotsial va psixologik imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan inklyuziv siyosatni eng muhim yo'nalish sifatida ko'rsatadilar.

Mahalliy (O'zbekiston) ilmiy manbalarda esa nogironligi bo'lgan shaxslar muammolari ko'proq ijtimoiy himoya tizimi, mehnat bandligi, ta'limga kirish imkoniyati va rehabilitatsiya xizmatlari bilan bog'liq jihatlar orqali o'rganiladi. Jumladan, A. Jo'rayev, Sh. Abdullayeva, N. Xolmatova kabi olimlar inklyuziv ta'lim, ijtimoiy infratuzilma, bandlik masalalariga alohida e'tibor qaratadilar. Ularning tadqiqotlarida nogironligi bo'lgan shaxslarning mustaqil hayot kechirishidagi asosiy to'siqlar – arxitektura infratuzilmasining mos emasligi, transport tizimining cheklanganligi, jamiyatdagi stereotiplar va rivojlanmagan inklyuziv muhit ekani qayd etiladi. Xorijiy adabiyotlarda (World Health Organization, International Labour Organization, UNESCO hisobotlari, shuningdek, J. Swain, S. French, B. Hughes tadqiqotlarida) nogironlarning jamiyatga to'laqonli integratsiyasini ta'minlash uchun uch muhim omil ta'kidlanadi:

1. inson huquqlarini kafolatlovchi normativ-huquqiy tizim;
2. jismoniy va axborot infratuzilmasining moslashtirilishi;
3. ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etuvchi madaniy va ma'rifiy ishlar.

Aksariyat tadqiqotchilar nogironlikni faqat tibbiy cheklov emas, balki murakkab ijtimoiy hodisa sifatida baholash zarur, degan fikrni ilgari suradi. Masalan, S. French “nogironlikning ijtimoiy konstruksiyasi” nazariyasini ilgari surib, nogironlar duch kelayotgan ko'plab muammolar aslida jamiyatning noto'g'ri munosabati natijasida yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Bu nuqtai nazar O'zbekistonda ham amaliyotga joriy etilmoqda: inklyuziv ta'lim konsepsiyasi, rehabilitatsiya markazlarining rivoji, nogironlar uchun yaratilayotgan maxsus texnologiyalar buni tasdiqlaydi. Adabiyotlarning yana bir muhim jihati — nogironligi bo'lgan shaxslarning iqtisodiy faolligi bo'yicha olib borilgan izlanishlardir. Iqtisodiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ishga layoqatli nogironlarning bandlik darajasi ko'pchilik mamlakatlarda past bo'lib, buning asosiy sabablari ish beruvchilar orasida yetarli xabardorlikning yo'qligi, moslashtirilmagan ish sharoitlari va diskriminatsiya hisoblanadi. Buning oqibatida davlat iqtisodiyoti ham katta miqdorda inson resursidan foydalana olmayapti. Shuning uchun ham ko'plab mamlakatlarda “inklyuziv iqtisodiyot” konsepsiyasi shakllanib, nogironlar bandligini oshirish bo'yicha maxsus kvotalar, imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash dasturlari joriy etilgan.

Psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyatga moslashuvi, o'zini qadrsiz his qilishi, ijtimoiy izolyatsiya va diskriminatsiyaga uchrash holatlari hali ham keng tarqalgan. Psixologlar (Masalan, C. Rogers, A. Maslow konsepsiyalari doirasida) nogiron shaxslarning o'zini o'zi anglash, motivatsiya, mustaqillik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ruhiy farovonlik uchun muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Nogironlik muammosini hal etish sotsial, iqtisodiy, huquqiy, psixologik va madaniy jarayonlarning o'zaro integratsiyasini talab qiladi. Ya'ni, muammoni faqat moddiy yordam yoki tibbiy davolash bilan hal qilib bo'lmaydi. Qamrovli yondashuv — inklyuziv ta'lim, moslashtirilgan infratuzilma, mehnat bozoridagi tenglik, davlat siyosatining izchil takomillashuvi va eng muhimi, jamiyat ongidagi stereotiplarni bartaraf etish — barqaror natijani ta'minlaydi. Shu bilan birga, ilmiy manbalar nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlashda sotsial ishning professional yondashuvi, individual rehabilitatsiya dasturlari, hamkorlik

mexanizmlarining kuchaytirilishi muhim ekanini ko'rsatmoqda. Demak, mavjud adabiyotlar muhokamasi shuni tasdiqlaydiki, nogironlik masalasini hal etishning sotsial ahamiyati nihoyatda yuqori bo'lib, u jamiyatning barcha sohalarini, shu jumladan huquqiy siyosatni, iqtisodiy islohotlarni, madaniy qadriyatlarni va sotsial xizmatlar tizimini qamrab oladi.

Muhokama

Nogironlik masalasi bugungi global jamiyatning eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy muammolaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Dunyo bo'yicha millionlab insonlar turli darajadagi jismoniy, psixologik yoki aqliy cheklovlar bilan yashar ekan, ularning hayot sifati, ijtimoiy integratsiyasi va teng imkoniyatlardan foydalanishi har bir davlatning rivojlanish darajasini belgilovchi mezonlardan biri hisoblanadi. Shu bois nogironlikni o'rganish nafaqat akademik ehtiyoj, balki jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan dolzarb ijtimoiy vazifadir.

Avvalo, nogironlikni o'rganish ijtimoiy adolat tamoyillarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Zamonaviy yondashuvlar nogironlikni shaxsning jismoniy yoki psixik holatiga bog'liq cheklov emas, balki jamiyat tomonidan yaratilmagan sharoitlar natijasi sifatida talqin etadi. Shuning uchun ilmiy tadqiqotlar nogironligi bo'lgan shaxslar duch kelayotgan infratuzilmaviy to'siqlar, stereotiplar, kommunikatsion muammolar va ijtimoiy tenglikning buzilishi kabi muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Bugungi kunda nogironlik masalasini chuqur o'rganishning yana bir muhim jihati – bu inson kapitalidan samarali foydalanish bilan bog'liqdir. Ko'plab davlatlarda ishga layoqatli nogironlar mehnat bozorida yetarlicha ishtirok etmaydi. Sababi – ish sharoitlarining mos emasligi, ish beruvchilarning yetarli bilimga ega emasligi yoki diskriminatsion yondashuvlardir. Ilmiy izlanishlar esa nogironlarning iqtisodiy faolligini oshirish, moslashtirilgan ish o'rinlarini tashkil etish, inklyuziv iqtisodiyotni shakllantirish bo'yicha samarali mexanizmlarni taklif etadi. Bu esa davlatning iqtisodiy salohiyatini kuchaytirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Nogironlikni o'rganishning ijtimoiy ahamiyatini belgilovchi yana bir omil – inklyuziv jamiyat tamoyillarining shakllanishidir. Inklyuziv jamiyat har bir a'zosining ijtimoiy hayotda teng ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu jarayonni ilmiy asoslash orqali ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, kommunikatsiya, davlat boshqaruvi va boshqa sohalarda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay sharoitlar yaratishning amaliy usullari ishlab chiqiladi. Aynan ilmiy tahlillar ta'lim tizimini moslashtirish, maxsus texnologiyalar yaratish, rehabilitatsiya va psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini takomillashtirishda muhim o'rin tutadi. Shuningdek, nogironlikni o'rganish jamiyat ongini o'zgartirishga ham xizmat qiladi. Tadqiqotlar natijasida nogironlik haqidagi xato tasavvurlar, stereotiplar, kamsituvchi munosabatlar fosh etiladi va ularning o'rniga insonparvarlik, bag'rikenglik va hurmatga asoslangan yondashuv shakllanadi. Bu esa nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytiradi, ularni jamiyatning faol, teng huquqli a'zolari sifatida ko'rsatadi. Bundan tashqari, nogironlikni o'rganish davlat siyosati va qonunchilikni takomillashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali rehabilitatsiya, sotsial xizmatlar, bandlik, ta'lim va infratuzilma bo'yicha milliy dasturlarni takomillashtirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish imkoniyati paydo bo'ladi. BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"si asosida olib borilayotgan islohotlar ham ilmiy tahlillarni talab qilmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, nogironlikni o'rganishning bugungi kundagi ijtimoiy ahamiyati nihoyatda yuqori. U jamiyatning axloqiy tamoyillarini

mustahkamlaydi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, sotsial tenglikni oshiradi va eng muhimi – har bir insonning qadr-qimmatini hurmat qiladigan inklyuziv jamiyat barpo etishga xizmat qiladi.

Xulosa

Nogironlik masalasining ijtimoiy ahamiyatini chuqur o'rganish bugungi kunda nafaqat ilmiy tadqiqotlar doirasida, balki jamiyat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslar duch kelayotgan infratuzilmaviy, iqtisodiy, psixologik va ijtimoiy to'siqlar ularning jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok etishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur to'siqlarni bartaraf etish esa jamiyatning o'zi tomonidan yaratiladigan sharoitlar va munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Nogironlikni o'rganish ijtimoiy adolat, tenglik va inson qadr-qimmatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar nogironlikni shaxsning cheklovlaridan ko'ra, jamiyatdagi imkoniyatlar yetishmovchiligi sifatida talqin qilishi ushbu muammoni kompleks hal etishning yangi istiqbollari ochmoqda. Ta'lim, bandlik, sog'liqni saqlash, sotsial xizmatlar, huquqiy himoya va infratuzilmani moslashtirish borasidagi islohotlar nogironligi bo'lgan shaxslar hayot sifatini oshirishning asosiy omillaridir. Shu bilan birga, jamiyat ongini o'zgartirish, stereotiplarni yengish va inklyuziv muhitni shakllantirish – dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nogironlar uchun yaratilgan sharoitlar nafaqat ushbu toifadagi shaxslarning hayot sifatini yaxshilaydi, balki butun jamiyatning madaniy, iqtisodiy va ma'naviy rivojiga xizmat qiladi. Demak, nogironlik masalasini o'rganish va yechimlar ishlab chiqish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qodirova, D. O'zbekistonda Nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy integratsiyasi. Toshkent, 2020.
2. Jo'rayev, A. Ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilishning nazariy asoslari. Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi. "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi Qonun. 2020-yil 15-oktabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va statistik ma'lumotlari (2021–2024).
5. Abdullayeva Sh. *Inklyuziv ta'limning nazariy asoslari*. Toshkent: Fan, 2020.
6. Юлбарсова Х. А. Интегратив ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив компетентлигини шакллантириш технологияси. Пед. фан. бўйича фалс. док.(PhD) дисс //Наманган–2019. – 2020. – Т. 12. – С. 12.
7. Abdusamatova O. SOTSIAL HAYOT, IJTIMOYIY MUNOSABATLAR VA SOTSILOGIYA //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B5. – С. 353-354.
8. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD), 2006.
9. <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/3841>
10. Parsons, T. The Social System. New York: Free Press, 1951.